

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/13.06.2025.B.05.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI

DAVRANOV ABDUXALIK MASHRAPOVICH

**GIDROMORF TUPROQLARNING XOSSA-XUSUSIYATLARI VA ULAR
UNUMDORLIGINI BAHOLASH USLUBLARINI TAKOMILLASHTIRISH
(ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)**

03.00.13 – Tuproqshunoslik

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) doktorlik dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
биологической наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on biological
sciences**

Davranov Abduxalik Mashrapovich

Gidromorf tuproqlarning xossa-xususiyatlari va ular unumdarligini baholash
uslublarini takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) 3

Давранов Абдухалик Машрапович

Совершенствование методов оценки плодородия и свойств
гидроморфных почв (на примере Андиканской области) 21

Davranov Abdukhalik Mashrapovich

Improving methods for assessing the fertility and properties of hydromorphic
soils (on the example of Andijan region) 40

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/13.06.2025.B.05.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI

DAVRANOV ABDUXALIK MASHRAPOVICH

**GIDROMORF TUPROQLARNING XOSSA-XUSUSIYATLARI VA ULAR
UNUMDORLIGINI BAHOLASH USLUBLARINI TAKOMILLASHTIRISH
(ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)**

03.00.13 – Tuproqshunoslik

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/B1000 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fardu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Uraimov Tojidin
qishloq xo'jaligi fanlari nozodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Abduraxmonov Nodirjon Yulchiyevich
biologiya fanlari doktori, professor

Sobitov O'Imasboy Tojaxmedovich
biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim

Yetakechi taskilot:

Toshkent davlat agrar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.03/13.06.2025.B.05.03 raqamli ilmiy Kengashning 2025-yil «15» 12 soat 13⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona shahar, murabbiylar ko'chasi 19-uy. Tel.: (+99873) 244-44-02; faks: (99873) 244-44-93; e-mail: fardu_info@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (636 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi 19-uy. Tel.: (+99873) 244-44-94

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «03 - 12» kuni tarqatildi.

(2025-yil «03 - 12» dagi № 1 -raqamli reyestr bayonnomasi)



G.Yuldashev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, k.z.d., professor

U.B.Mirzayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, b.f.p., dotsent

A.T.Turdaliyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d.,
professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Bugungi kunda “FAO hisobotlarida qayd etilgan keng ko‘lamli yer degradatsiyasi jahonda 1,66 mldr gettar yerni (jami yer maydonining >10%) inson faoliyati natijasida ekanligi keltirilgan bo‘lib, uning 60% dan ortig‘i qishloq xo‘jaligi yerlariga to‘g‘ri keladi va taxminan 1,7 mldr aholi hosildorlik kamida 10% tushib ketgan hududlarda yashamoqda – bu esa tuproq bonitirovka ballarining pasayishi va tuproq unumdorligini qayta baholashning dolzarbligini yanada oshiradi. Bonitirovkalash ishlarida yagona uslubiyatning mavjud emasligi tuproq unumdorlik darajasini yaxshilash tadbirlarini ham qiyinlashtirmoqda”¹. O‘zbekistonda tuproqlar unumdorligini bonitirovkalash ishlari sholi va tariq ekinlaridan tashqari yetakchi g‘o‘za o‘simgi majmuasidagi barcha ekinlar qamrab oluvchi uslubiyat asosida o‘tkaziladi. Shu sababli, gidromorf sharoitda shakllangan o‘tloqi-allyuvial, o‘tloqi-botqoq, botqoq tuproqlar unumdorligini sholi yetishtirish jarayonida tuproqlar uchun negizli baholash shkalasini tuzish, baholash uslubini takomillashtirish, sholi hosili bilan tuproq unumdorligining qiyosiy bahosi “balli” o‘rtasidagi bog‘liqliklarni aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda sug‘oriladigan gidromorf tuproqlar xossa va xususiyatlarini aniqlash, ular unumdorligini shakllanishi, turli almashlab ekish tizimlaridagi ekin turlari ta’sirida o‘zgarishini hisobga olgan holda unumdorlik darajasini belgilash orqali yer resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada tuproqlarning ekologik-meliorativ holatini yaxshilash, tuproq-iqlim sharoitiga mos keladigan ekin turini tanlash, xususan, sholi ekinlari yetishtirish sharoitida tuproq unumdorligini yaxshilash va oshirish, tuproqlarni sifat jihatdan baholashga doir ilmiy-tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda bugungi kunda 148 ming gettar maydonda sholi ekilib, ekin maydonlarining tuproq sifatini baholash, unumdorligini saqlash va oshirish, unumdorligi past bo‘lgan yerdan samarali foydalanishda yangi texnologiyalarini qo‘llashga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilib, muayyan natjalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida «...zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali statistik ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish va tarqatishning ishonchli uslublarini joriy etishni nazarda tutuvchi tarmoq statistikasining shaffof tizimini yaratish, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerdan hisobga olishning kadastr tizimini takomillashtirish, shuningdek qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerdan tarqatishning kadastr bahosini aniqlash tizimini qayta ko‘rib chiqish»² bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada respublikamizning sholi ekinlari ta’siri sharoitlaridagi sug‘oriladigan tuproqlarning xossa-xususiyatlarini aniqlash, ulardan kelib chiqib shakllanadigan unumdorlik holatini tahlil etish va unumdorligini baholash uslublarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ https://www.fao.org/newsroom/detail/fao-study-reveals-alarming-agricultural-land-degradation-in-the-arab-region/en?utm_source=chatgpt.com

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-sonli O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi PF-5742-son «Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni, 2021-yil 2-fevraldaggi PQ-4973-sonli “Sholi yetishtirishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori va tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sug‘oriladigan yer maydonlari tuproq unumdorligini baholash “tuproq bonitirovkalash” ishlarini o‘tkazish va amaliyotga tadbiq etish bo‘yicha bir qator xorij va hamdo‘stlik mamlakatlari olimlari F.Y.Gavrilyuk, S.S.Sobolev, B.F.Aparin, A.V.Rusakov, D.S.Bulgakov, G.I.Uvarov, P.V.Goleusov, Y.S.Lobanova, M.Orinbekov, M.Sattorovlar ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borganlar. Mamlakatimizda bu borada yetakchi ilmiy tashkilotlar “Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tatqiqotlar instituti”, “O‘zdaverloyiha” davlat ilmiy-loyihalash instituti va turdosh ilmiy tadqiqot institutlari olimlaridan dastlab G.M.Konobeyeva, V.R.Shreder, G.G.Reshetov, A.Q.Bazarov, V.N.Li, J.M.Maqsudovlar, keyinchalik esa R.Q.Qo‘ziyev, G.Yuldashev, A.A.Tursunov, I.A.Akramov, S.A.Abdullayev, A.Yo‘ldoshev, I.U.Urazbayev, A.Boirov, N.Y.Abduraxmonov, Sh.M.Turdimetov, Sh.M.Bobomurodov, G.T.Parpiyev, O.T.Sobitov, Sh.S.Mansurovlarning ilmiy va metodik qo‘llanmalari qishloq xo‘jaligi amaliyotiga joriy qilingan. Lekin hozir aholini kun sayin oziq-ovqat mahsulotlariga talabi ortib borayotgan bir paytda mamlakatimiz aholisini sifatli va ekologik toza oziq-ovqat, meva-sabzavot va boshqa birlamchi ehtiyoj mahsulotlari bilan ta‘minlash hamda mamlakatimiz iqtisodiy imkoniyatlarini mustahkamlash maqsadida tuproqlarning turli regionlarda tarqalishini gemorfologik joylashishi nuqtai nazardan o‘rganilib, yetishtirilayotgan ma’lum bir ekin turiga xususan sholi uchun qulay tuproq sharoiti mavjud yer maydonlari tuproqlarini regional baholash “bonitirovkalash” usullari ishlab chiqilmagan va takomillashtirilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaliari bilan bog‘liqligi. Ushbu dissertatsiya Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalari instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi IL-432105783 “O‘zbekiston sharoitida organomineral o‘g‘itlar va fiziologik faol moddalarni kompleks qo‘llash asosida kungaboqar va makkajo‘hori yetishtirishning ekologiyalashgan texnologiyalarini yaratish” ilmiy loyihasi hamda “Andijon viloyati tumanlaridagi mavjud fermer xo‘jaliklari va boshqa yerdan foydalanuvchilar sug‘oriladigan yerlarining tuproq kartalarini tuzish va tuproqlarini baholash” mavzusidagi 2013-1-sonli (25.01.2013-y.), “Andijon viloyati tumanlaridagi mavjud fermer xo‘jaliklari va boshqa yerdan foydalanuvchilar sug‘oriladigan yerlarining tuproq kartalarini tuzish va tuproq sifatini baholash

ishlarini bajarish” (2021-y.) mavzusidagi 2021-16-sonli xo‘jalik shartnomalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo‘z tuproqlar mintaqasidagi sug‘oriladigan o‘tloqi-allyuvial, o‘tloqi-botqoq (botqoq-o‘tloqi), botqoq tuproqlarni xossa-xususiyatlarini aniqlash orqali sholi yetishtiriladigan gidromorf tuproqlar uchun negizli baholash shkalasini tuzish, regional baholash uslubini takomillashtirishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari: Qoradaryo yoyilmasi va I-II terrasalaridagi sug‘oriladigan o‘tloqi-allyuvial, o‘tloqi-botqoq (botqoq-o‘tloqi), botqoq tuproqlar morfogenetik xususiyatlariga ko‘ra tuproq qoplami tuzilishida farqlanish ko‘rsatkichlarni aniqlash;

Gidromorf tuproqlarda sodir bo‘lgan o‘zgarishlar dinamikasini o‘rganish (tadqiqot natijalarini tarixiy taqqoslash);

Sholi hosildorligiga ta’sir etuvchi, tuproq unumdarligini cheklovchi omillariga bonitirovkalash koeffitsiyentlarni takomillashtirish;

Ekinlarini joylashtirish rejasiga va tuproq sifatini baholash xarita ma’lumotlari asosida sholi hosilini rejalashtirish;

Viloyatning Qo‘rg‘ontepa, Jalaquduq, Paxtaobod, Andijon tumanlarining Qoradaryo yoyilmasi, I-II- terrasalarida tarqalgan gidromorf tuproqlari hozirgi kungi tarqalishi aks ettirilgan 1:50 000 masshtabli tuproq xaritasini tuzish.

Tadqiqot obyekti sifatida Andijon viloyati Qo‘rg‘ontepa, Jalaquduq, Paxtaobod va Andijon tumanlarining Qoradaryo yoyilmasi, I-II terrasalarida tarqalgan allyuvial yotqiziplarda shakllangan gidromorf tartibotli o‘tloqi, o‘tloqi-botqoq (botqoq-o‘tloqi) va botqoq tuproqlar olingan.

Tadqiqot predmeti gidromorf tartibotli o‘tloqi, o‘tloqi-botqoq (botqoq-o‘tloqi) va botqoq tuproq qoplamlarining agrofizikaviy, agrokimyoviy xossalari hamda unumdarlikni cheklovchi tuproq xususiyatlari, tuproqlar sifatini baholash va “Iskandar” sholi navi hosildorligi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dala va laboratoriya tadqiqotlari tuproqshunoslikda umumqabul qilingan uslublar asosida amalga oshirildi. Izlanishlarda geografik, genetik, tarixiy-taqqoslash hamda profil usullaridan foydalanildi. Agrokimyoviy tahlillar A.J.Boirov va M.M.Toshqo‘ziyevlarning «Руководство к проведению химических и агрофизических анализов почв при мониторинге земель», dala va kameral izlanishlar “Davlat yer kadastrini yuritish uchun tuproq tadqiqotlarini bajarish va tuproq xaritalarini tuzish bo‘yicha yo‘riqnomasi” bo‘yicha va olingan natijalar matematik-statistik tahlili V.A.Dospexov qo‘llanmasi va Microsoft Exsel dasturi yordamida korrelyatsion-regression usulda taxlil qilingan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sug‘oriladigan o‘tloqi, o‘tloqi-botqoq (botqoq-o‘tloqi), botqoq tuproqlarning morfologiyasi, agrofizik va agrokimyoviy hususiyatlarining hozirgi holatiga ko‘ra dehqonchilik ta‘sirida gidromorfizm jarayonlari tavsiflangan;

Qoradaryo yoyilmasi va terrasalarida sholi yetishtirishga yaroqli gidromorf tuproqlarning xossa xususiyatlar, hoziri kungi holati, unumdarligi baholangan;

bo‘z tuproqlar kamarida sholi yetishtirilayotgan gidromorf o‘tloqi, o‘tloqi-botqoq (botqoq-o‘tloqi), botqoq tuproqlar uchun negizli baholash shkalasi takomillashtirilgan;

o‘tloqi, o‘tloqi-botqoq va botqoq tuproqlarga rejalashtirilgan sholi hosili miqdorini mazkur tuproqlarga qo‘yilgan ballga o‘zaro bog‘liqligi isbotlangan;

korrelyativ bog‘liqlik asosida tuproq unumdorligini chegaralovchi xossalari, jumladan: granulometrik tarkibi, gumus miqdori va qatlami, oziqa moddalari miqdori, skletligi, sho‘rlanish darajasi, gips (arziq-shox) qatlami, zichlanishi va yuvilishi darajasiga ko‘ra amaldagi pasaytiruvchi koeffitsiyentlarga kiritilgan yangi tuzatishlar ilmiy asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

gidromorf tuproqlar unumdorligini saqlash, muntazam oshirish va ulardan samarali foydalanish bo‘yicha agrotexnik va meliorativ chora-tadbirlar belgilashda o‘rganilgan hududlarning 1:50000 miqyosli tuproq xaritalari tuzilgan;

“Iskandar” sholi navi yetishtirish bo‘yicha texnologik karta hamda sholi hosildorligini rejalashtirishda foydalanish uchun tayanj hududning 1:10000 miqyosli tuproq va tuproq sifatini baholash xaritalar tuzilgan;

sug‘oriladigan o‘tloqi, o‘tloqi-botqoq (botqoq-o‘tloqi), botqoq tuproqlar holatini yaxshilash, ekinlarni to‘g‘ri joylashtirish, unumdorligini saqlash va oshirish bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqish uchun ilmiy asoslangan tavsiya ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dala, laboratoriya va kameral ishlar umumqabul qilingan usullaridan foydalangan holda o‘tkazilganligi, tadqiqot natijalarini korrelyatsion-regression va statistik qayta ishlanganligi, amaliyatga tatbiq etilganligi, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy anjumanlarda muhokama etilganligi, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya kommissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda chop etilganligi natijalarning ishonchlilagini bildiradi.

Tadqiqotning natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sug‘oriladigan gidromorf tuproqlar unumdorligiga inson faoliyati va tabiiy omillar ta‘siri, tanlangan kalit maydonlar tuproq qoplami oziqa moddalari tarkibi, zahirasi va xossa-xususiyatlaridan kelib chiqib, sholi hosildorligini belgilash hamda o‘tloqi, o‘tloqi-botqoq (botqoq-o‘tloqi), botqoq tuproqlar uchun regional bonitirovkalash uslubi va koeffitsiyentlarning ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini amaliy ahamiyati shundan iboratki, o‘rganilgan hudud uchun 1:50000 miqyosli tuproq xaritalari hozirgi tuproq qoplami tarqalishi chegaralari aniqlangan va tayanj hudud uchun 1:10000 miqyosli tuproq hamda tuproq sifatini baholash xaritalar tuzilgani, tuproq unumdorligini oshirish va “Iskandar” sholi navi yetishtirish, yuqori hosil olish, hosildorlikni rejalashtirishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi Qoradaryo vodiysi va daryo I-II-terrassalarida sholi yetishtirilayotgan tuproqlar unumdorligini baholash bo‘yicha bonitirovkalash uslubini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Tuproq tadqiqotlari va tuproq sifatini baholash xaritalari asosida qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi va yalpi hosil miqdorini belgilash bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar Andijon viloyati Jalaquduq tumani “Oyim” massivi sholi yetishtirilayotgan sug‘oriladigan o‘tloqi, o‘tloqi-botqoq va botqoq tuproq maydonlarida joriy qilingan (Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 10-fevraldagi 05/05-04-43-son ma’lumotnomasi). Natijada tadqiqot natijalari bo‘yicha baholashda qo‘llanilgan bir ballning hosilga muvofiq qiymati asosida olingan ma’lumotlarga ko‘ra sholi yetishtirilayotgan o‘tloqi, o‘tloqi-botqoq va botqoq tuproqlarga qo‘yilgan ball boniteti bilan u yerdan olinadigan hosil miqdorini belgilay olishi tasdiqlanib, ishlab chiqarishga joriy qilingan.

sholi yetishtirilayotgan sug‘oriladigan tuproqlari unumdorligini oshirish, ekinlarni joylashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar Andijon viloyati Jalaquduq tumani “Oyim” massividagi jami 2289,8 hektar sug‘oriladigan yer maydonlarida amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 10-fevraldagi 05/05-04-43-son ma’lumotnomasi). Natijada sug‘oriladigan gidromorf tuproqlarining holatini yaxshilash, ekinlarni to‘g‘ri joylashtirish, unumdorligini saqlash va oshirish bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqishda qo‘llanma sifatida xizmat qilgan;

Andijon viloyati Jalaquduq tumani “Oyim” massivi fermer xo‘jaliklarining jami 2289,8 hektar sug‘oriladigan yer maydonlarining 1:10000 mashtabli tuproq sifatini baholash bo‘yicha xaritalari ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 10-fevraldagi 05/05-04-43-son ma’lumotnomasi). Natijada massividagi gidromorf tuproqlarning xossa-xususiyatlari va unumdorlik darajasiga ko‘ra, yerkarning me’yoriy qiymatini hisoblash, qishloq xo‘jaligi hosilini rejalashtirish, unumdorligi past bo‘lgan yerdarda davlat ehtiyojlari uchun paxta xom ashyosi yetishtiruvchi qishloq xo‘jaligi korxonalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash imkonini bergen.

Tadqiqot natijalari aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari jami 6 ta, jumladan 4 ta xalqaro va 2 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan hamda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natjalarning e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ishlar chop etilgan. Jumladan 1 ta tavsiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shundan: 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 5 bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 119 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbliji va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, O‘zbekiston respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natjalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot

natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyani tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Sug‘oriladigan tuproqlarni bonitirovkalash ishlarining o‘rganilish holati va ularning tahlili**” deb nomlangan birinchi bobida o‘rganilgan mavzuga oid mahalliy, hamdo‘stlik va xorijiy mamlakatlar ilmiy manbalar, olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari, internet ma’lumotlari tahlil etilgan va batafsil yoritib berilgan. Shuningdek, tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib: paxta, g‘alla, sabzavot ekinlari, shuningdek sholi yetishtirilayotgan gidromorf tuproqlarning xossa-xususiyatlari va unumdorligini baholash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarning adabiyotlar sharhi keltirilgan. Tahlil qilingan adabiyotlarda keltirilgan tuproq unumdorligini baholash bo‘yicha mahalliy va horijiy tajribalardan kelib chiqib, sug‘oriladigan o‘tloqi, o‘tloqi-botqoq va botqoq tuproqlarni ularning xossa va xususiyatlari o‘rganilib, xususan sholi ekini uchun qulay tuproq sharoiti bo‘lgan Qoradaryo vodiysi, daryo terrasalarida aynan sholi hosili salmog‘idan kelib chiqib regional tuproq sifatini baholash usulini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish zarurligi keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Tadqiqot o‘tkazilgan hududning tabiiy sharoitlari, tadqiqotlar obyekti va uslublari**” deb nomlangan ikkinchi bobida, Andijon viloyatida gidromorf tuproqlarining geografik joylashish o‘rni, relyefi, litologik va geomorfologik, gidrologik, iqlimi va o‘simlik qoplamlari hamda sholiga tavsif uni ekishdan to o‘rib yig‘ishtirib olishgacha davrdagi agrotexnikasi tuproqlarni xossa-xususiyatlari, tadqiqot obyekti va uslublari to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Andijon viloyati- Farg‘ona vodiysining sharqiy qismida joylashgan atrofi tog‘lar bilan o‘ralgan mamlakatimizning asosiy paxta yetishtiruvchi ma’muriy birligi ekanligi Viloyat hududi Farg‘ona vodiysining o‘ziga xos bo‘lgan tadrijiy-tarixiy rivojlanishi va xususiyati- vodiyni o‘rab turgan baland tog‘lardan irmoqlar hosil qilgan sersuv daryolarning mavjudligi, jumladan eng yiriklari Qoradaryo va Norin daryolari qo‘shilishidan O‘rta Osiyodagi ikkinchi yirik suv magistrali Sirdaryoni hosil qilgani vodiyya xos havo tartiboti ushbu hududning yana bir ajralib turadigan xususiyati yoritib berilgan. Tadqiqotda Andijon viloyati hududini quyidagi litologik geomorfologik tumanlarga ajratilgan:

Past tog‘liklar- (Oloy va Farg‘ona tog‘ tizmalar);

Adirlar- (Quva-Andijon adirlari va Sultonobod braxiantiklinial adirlari);

Adirlararo botiqliklar- (Oyim-Xo‘jaobod-Marxamat adir orti botiqliklari;

Tog‘ daryolari oqimidan hosil bo‘lgan konussimon tog‘ yon bag‘rli tekisliklar: Qoradaryo, Oqbo‘ra, Aravon, Jingilsoy konussimon yoyilmalari;

Ko‘ndalang vodiylar- (Qoradaryo, Oqbo‘ra-Toshbuloqsoy, Oqbo‘ra-Andijonsoy, Aravon-Shaxrixonsoy, Aravon-Jingilsoy vodiylari);

Tog‘ osti tekisliklar- (Qiya tog‘ oldi tekisligi. Qoradaryo vodiysi kesib o‘tgan kuchsiz qiyalikli tog‘ oldi tekisliklar: Maylisoy va Norin yoyilmalari. Tekislangan tog‘ oldi tekisliklari: Qoradaryoni yuqori terrasasiga tutashgan Oqbo‘ra-Andijon va Aravon-Shaxrixonsoy konussimon yoyilmasi. Tog‘ osti tekisligidagi yassi botiqliklar. Qoradaryo va Sirdaryoning yuqori terrasalarida jarlanib chuqurlashgan yerlar. Mayda tepalikli qadimgi allyuvial tekisliklar);

Zamonaviy daryo vodiylari (Qoradaryo vodiysi, Qugart vodiysi quyi oqimi, Qora Ungur vodiysi quyi oqimi).

Gidrogeologik sharoitlariga qarab sizot suvlarining rejimi, minerallanishi va tuproqlarning tuz rejimlari keskin farq qilishi, gidromorf tuproqlar ularning namlanish sharoitiga ko‘ra allyuvial rejimdagi va saz rejimli tuproqlarga ajralishi va allyuvial rejim daryo vodiylarida sizot suvlarini barqaror bo‘lmagan sharoitda yuzaga kelishi saz rejimi esa tog‘ oldi qiya tekisliklarida va yoyilmalarda tog‘lardan sizib oqayotgan bosimli sizot suvlarining barqaror bo‘lgan sharoitida hosil bo‘lishi yoritilgan. Qoradaryo yoyilmasi, sohili va terrasalarida bir yillik va ko‘p yillik o‘simliklari turli qalnlikda va moslashish sharoitiga ko‘ra xilma xil bo‘lishi va bu yerlarda ko‘proq o‘tloq va turli boshoqli o‘simliklar ko‘proq tarqalganligi asosan betaga (*Festuca sulcata* Hack), bug‘doyiq (*Triticum*), burchoq (*Lathyrus sativus* L.), otqulqoq (*Rumex*), ayiqtovon (*Ranunculus*), sebarga (*Trifolium*), vika (*Vicia faba* (V. *faba*), ajiriq (*Cynodon dactylon* (L.) Pers.), g‘umay (*Sorghum halepense* (L) Pers), qo‘g‘ani (*lat.Typhalatifolia*), to‘pgulli xilol (*Cyperus rotundus*), tovuq tariq (kurmak) (*Echinochloa cris galli*), shamak (*Leersia oryzoides*), qamish (*Schoenoplectus lacustris*) kabi o‘simliklar o‘sishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Qoradaryoning yuqori oqimi Qo‘rg‘ontepa meteostansiyasi ma’lumotiga asosan, tavsif berligan ya’ni tuman hududining havo haroratining o‘rtacha yillik miqdori $+13,8^{\circ}\text{C}$ ni tashkil qilishi, maksimal havo harorati iyul oyiga $+38,8^{\circ}\text{C}$ to‘g‘ri kelishi, eng sovuq oy dekabrda $-6,2^{\circ}\text{C}$ to‘g‘ri kelishi va yillik yog‘in miqdori 376,3 mm.ni hamda vegetatsiya davrining 10°C effektiv faol harorat yig‘indisi bu hududda $+4700^{\circ}\text{C}$ dan $+4890^{\circ}\text{C}$ ni tashkil etishi keltirilgan.

Tadqiqotlar Kampirovvot suv omboridan boshlab, Qoradaryo vodiyida daryo oqimining chap sohil usti I-II terrasalarida Qo‘rg‘ontepa, Jalaquduq va Andijon tumanlari hamda daryo oqimining o‘ng sohil usti I-II terrasalarida Paxtaobod tumani hududlarida sholi yetishtirilayotgan gidromorf o‘tloqi-allyuvial, o‘tloqi-botqoq, botqoq-o‘tloqi va botqoq tuproqlari tanlangan.


Tuproq tadqiqotlari dala, kameral-analitik, kameral-kartografik ishlar Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutida ishlab chiqilgan, amaldagi uslublarda, jumladan: “Davlat yer kadastrini yuritish uchun tuproq tadqiqotlarini bajarish va tuproq xaritalarini tuzish bo‘yicha yo‘riqnomasi” hamda “O‘zbekiston Respublikasi yer monitoringi” talablari bo‘yicha amalga oshirildi.

Dissertatsiyaning “**Bo‘z tuproqlar kamari tuproq qoplami, tuzilishi, xossalishususiyatlari**” deb nomlangan uchinchi bobi uchta paragrafdan iborat bo‘lib, “*Andijon viloyati hududi tuproqlari genezisi*” deb nomlangan birinchi paragrafida viloyat hududida tuproqlarning paydo bo‘lishi, shakllanishi va tarqalishi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Qoradaryo vodiyida daryo oqimining chap sohil usti I-II terrasalarida Qo‘rg‘ontepa, Jalaquduq va Andijon tumanlari hamda daryo oqimining o‘ng sohil usti I-II terrasalarida Paxtaobod tumani hududlari tuproq qoplamlarida tuproq paydo bo‘lish jarayonlari, hududning geomorfologik va tuproq-iqlim sharoitlari ta’sirida shakllanishi tafsiflangan. Hududning Qoradaryo ta’sir zonasida tuproqlarni paydo bo‘lishi va shakllanishida turli omillar, shu jumladan, iqlim

sharoitlari, relyef, gidrologiyasi va sholichilikni qadimdan yuritilishi bilan alohida ahamiyatga ega.

Tuproq paydo bo‘lishi xususiyatlari viloyatning gidrogeologik sharoitlaridan kelib chiqib, 3 ta yirik gidrogeokimyoviy mintaqaga ya’ni chap sohil, o‘ng sohil hamda Qoradaryo vodiysi va Teshiktoshning quyi qismiga bo‘linib, shu hududda tarqalgan gidromorf tuproq tip (xillari) lariga aniqlik kiritildi.

1982-1983 yillarda G.G.Nagayev, L.N.Kijaykina, A.S.Eynisman, L.P.Glinskaya, N.A.Mamchich, S.P.Kochubey va S.P.Suchkovlar Andijon viloyatining Jalaquduq, Qo‘rg‘ontepa, Paxtaobod va Andijon tumanlarining 1:50000 miqyosli tuproq xaritalari va eksplikatsiyalarini tuzganlar. Tadqiqotimiz natijasida Qoradaryoning chap va o‘ng sohil qayir usti terrasalarida gidromorf tartibotli tuproqlar tarqalgan hududlarning 1:50000 miqyosli tuproq xaritalari korrektirovka qilinib, eksplikatsiyalari yangilandi. Natijada 1982-2023-yillar oralig‘ida Jalaquduq tumanida sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial, o‘tloqi-botqoq va botqoq tuproqlar maydoni 269,2 gettarga Qirg‘iziston Respublikasi bilan chegara delmitatsiya-demarkatsiyasi hisobiga hamda Qo‘rg‘ontepa tumanida sug‘oriladigan o‘tloqi-allyuvial va o‘tloqi-botqoq tuproqlar maydoni 409,0 gettarga yer fondi toifasi o‘zgarishi hisobiga kamayganligi aniqlangan (1-rasm).




1-rasm. Jalaquduq va Qo‘rg‘ontepa tumanlarida gidromorf tuproqlar maydonining yillar bo‘yicha o‘zgarish dinamikasi, ga

Ushbu bobning “Qoradaryo yoyilmasi va chap sohil qayir usti gidromorf tuproqlari” deb nomlangan ikkinchi paragrafida turli tuproq zonalarining gidromorf tuproqlarini bir biridan farq qilishini ulaming tabiiy sharoitlari-iqlimi, tuproq paydo

qiluvchi ona jinslari tarkibi, o'simliklar qoplami va boshqa xususiyatlarini hisobga olib, zonal joylashuviga ko'ra bo'z tuproqlar kamari gidromorf tuproqlar daryo oqimi bo'yab chap va o'ng sohilga ajratilib tadqiqotlar o'tkazilgan.

Gidromorf tuproqlar sizot suvlari yaqin (0,5-3,0 m) bo'lgan sharoitda, doimiy kapillyar namlik ta'sirida hosil bo'ladigan doimiy sholi yetishtirilayotgan sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial, o'tloqi-botqoq, botqoq tuproqlar tadqiq qilingan. Dehqonchilik madaniyati, yerdan foydalanish darajasi, tuproq xossalari va hozirgi unumdorlik holati, sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarning asosiy xossalari va meliorativ holatiga doir laboratoriya-analitik va oldingi yillarda olib borilgan tadqiqot natijalari bilan qiyosiy taqqoslangan ma'lumotlar keltirilgan.

Ilmiy izlanishlarimizda daryoning chap sohilida sug'oriladigan o'tloqi allyuvial tuproqlarning mexanik tarkibi asosan yengil qumoqli bo'lib, haydov osti va quyi qatlamlarda qumloqli qatlamlar yengil qumoqli bo'lib, qatlam ostidan shag'al chiqadi. Fizik loy (<0,01mm dan kichik zarrachalar) miqdori 29,37% ni tashkil etib, bu tuproqlar uchun mayda qum (0,01-0,05mm) zarrachalarining ustunligi xarakterli xususiyat hisoblanadi. 2001-2013 yilda o'tkazilgan tuproq xaritalarini korrektirovkalash ishlari natijalariga ko'ra, tavsif berilgan mazkur o'tloqi-allyuvial tuproqlarning mexanik tarkibi qumloqli va yengil qumoqli bo'lib, fizik loy (<0,01mm dan kichik zarrachalar) miqdori 13,4-22,25% ni tashkil etgan. Tajriba o'tkazilgan yer maydonlari deyarli bir biriga yaqin mexanik tarkibli tuproqlar guruhini tashkil etadi, bunga daryo oqimi tarixiy uzoq vaqt mobaynida allyuvial yotqiziqlarni turli qalinlikda yotqizishi va inson faoliyati-dehqonchilik ta'sirida hozirgi kungi holatini shakllantirganlini ko'rish mumkin.



2-rasm. Jalaquduq va Qo'rg'ontep tumanlarida gidromorf tuproqlar tarkibidagi gumus, fosfor va kaliyning yillar bo'yicha o'zgarish dinamikasi, (t/ga).

Sholi yetishtirilayotgan sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarning haydov qatlamida gumus miqdori 2001 yil ma'lumotlariga ko'ra 0,790% ni, haydov osti

qatlamida 0,669% ni tashkil qilgan bo'lsa, 2022 yilda bizning olib borgan tadqiqotlarimizda tuproqlarning haydov qatlamidagi gumus miqdori 0,987-1,197% oralig'ida tebranib, tuproq profilining 35-52 sm.li qatlam chuqurligida o'rtacha 0,462% ko'rsatkichlarda qayd qilindi. Gumus miqdoriga ko'ra, mazkur tuproqlar ta'minlanish darajasi o'rtacha ya'ni (0,81-1,20%) tuproqlar guruhiga kiradi. 2001 yildagi tadqiqodlarimiz natijalariga asosan, tuproqlarning haydalma qatlamida umumi azot miqdori haydov qatlamda 0,019-0,046%, fosfor 0,165-0,250%, kaliy 1,634-1,715% miqdorida ekanligi, 2022 yilgi tadqiqotlarda umumi azot miqdori 0,037-0,042%, fosfor 0,116-0,147%, kaliy esa 1,634-1,702% oralig'ida tebranadi. Harakatchan azot tuproqning haydov qatlamida 8,9-13,4 mg/kg, fosfor 17,5-35,0 mg/kg, almashinuvchi kaliy esa 93,0-98,0 mg/kg ni tashkil etadi. 2001-2013 yillarda sug'orildaigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarning ustki 0-50 sm.li qatlamida gumus zahirasi mos ravishda 55,3-67,6 t/ga, yalpi fosfor 1,1-1,8 t/ga, yalpi kaliy 11,7-12,0 t/ga ni tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilga kelib bu ko'rsatkich tuproqning 0-50 sm li qatlamida mos ravishda 83,8 t/ga, va 1,0 t/ga, 11,9 t/ga ni tashkil etgan (2-rasm).

Tuproqlarning haydov qatlamidagi singdirilgan kationlar yig'indisi 100 gr. tuproqda 8,94-9,16 mg-ekv.ni, haydov osti va quyi qatlamlarida 8,19-8,65 mg-ekv.ni tashkil etadi. Singdirilgan kationlar tarkibida kalsiy 55,02-63,98% va magniy kationlari 27,63-41,92% ni tashkil etadi, kaliy 1,09-5,70 % va natriy 1,96-2,68 % ko'rsatkichlarda kuzatildi, bu tuproqlar sho'rlanmagan (<10%) tuproqlar guruhiga kiritildi.

Tadqiqod hududidagi sholi yetishtirilayotgan sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarining suvli so'rim tahlili 2001-2013-2022-yillar natijalariga asosan, sho'rlanmagan va sho'rlanish tipi sulfatli tuproqlar guruhini tashkil etadi.

Sho'rlanish ximizmi bo'yicha sulfatli tipdagi tuproqlarni sho'rlanish darajasini tahlil qiladigan bo'lsak, quruq qoldiq miqdori (<0,3%) dan ortmagan tuproqlar sho'rlanmagan hisoblanadi. Yillar mobaynida mazkur hudud tuproqlarida quruq qoldiq miqdori 0,120-0,185% oralig'ida tebranishi kuzatilgan.


Bobning "*Qoradaryoning o'ng sohil qayir usti gidromorf tuproqlari*" deb nomlangan uchinchi paragrafida Qoradaryo o'ng qirg'oq qayir usti terrasalarida Paxtaobod tumanining ayni sholi yetishtirish uchun qulay tuproq va suv tartibotiga ega sug'oriladigan o'tloqi, o'tloqi allyuvial va botqoq-o'tloqi tuproqlarning yillar mobaynida maydoni va tuproqlarining agrokimyoviy tarkibi va unumdorligini baholashga bag'ishlangan bo'lib, bunda olinayotgan sholi hosiliga qo'yilayotgan bonitet ballari o'rtasida mutanosibliklarni baholashning takomillashtirilgan uslubi bo'yicha bajarilgan tuproq-baholash ishlarining natijalari bayon etilgan.

Sholi yetishtirilayotgan mazkur gidromorf tuproqlar tarkibida gumus miqdori 0,640-1,843%, harakatchan fosfor miqdori 9,9-14,1 mg/kg, almashinuvchi kaliy 87,0-153,0 mg/kg. Haydov ustki qatlami turli darajada (kam, o'rtalik, kuchli) tosh aralashganligi, hamda haydov osti qatlamida esa 40-75 sm chuqurlikda shag'al qatlamlari uchrashi, ushbu yer maydonlarda yerga ishlov berish (shudgorlash, qator orasiga ishlov berish, kultivatsiya va boshqalar) ni qiyinlashtiradi, shuning uchun bunday sharoitda sholichilikni yo'lga qo'yilganligi, unumdorligi o'rtachadan past (boniteti 41-50 ball) bo'lgan tuproqlardan 62,7-64,9 sentnerdan hosil olinayotganligi

va qishloq xo‘jaligini yanada samarali yo‘lga qo‘yib, aholini oziq-ovqati sifatida guruch va urug‘lik sholi yetishtirishda foydalanilishi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning “**Tuproq xossalari bilan sholi hosildorligi o‘rtasidagi korrelyativ bog‘liqliklar**” deb nomlangan to‘rtinchchi bobi ham yettita paragrafdan iborat bo‘lib, “*Sholi yetishtirilayotgan gidromorf tuproqlar unumdorligini baholashning afzalliklari va bonitirovkalashning negizli shkalasi*” deb nomlangan birinchi paragrafida bo‘z tuproqlar mintaqasida aynan sholi yetishtirilayotgan sug‘oriladigan o‘tloqi, o‘tloqi-botqoq, botqoq tuproqlarning regional bonitirovkalash uchun negizli shkalani tanlashda tuproqning mexanik tarkibiga ko‘ra qumli, qumloqli, yengil, o‘rta, og‘ir qumoqli va loyli mexanik tarkibli tuproqlarda haqiqatda olingan hosildorlik natijalari korrelyatsion va regression tahlili orqali negizli baholash shkalasi tuzib chiqilgan. Baholash shkalasi tuproqning genetik guruhi va mexanik tarkibi bo‘yicha tuzilgan chunki, tuproqlarning xossa va xususiyatlari, ularning paydo bo‘lish va rivojlanish jarayonlari hamda mexanik tarkibi bilan o‘zaro chambarchas bog‘liqdir.

Mazkur bobning “*Tuproqlarning gumus miqdori, qatlam qaliligiga ko‘ra bonitirovkalash*” deb nomlangan ikkinchi paragrafida tuproqdagi gumus miqdori va gumusli qatlam qaliligi tuproqning unumdorlik xossa va xususiyatlarini belgilab berishi va tuproq tarkibining organik qismi uning miqdori va singdirish qobiliyatini yaxshilab, o‘simliklar uchun kerakli oziqa elementlarini zahiralash va ta‘minlab berish vazifasi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.



3-rasm. Sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlarda gumus miqdori va sholi hosildorligi o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlik diagrammasi.

Tadqiqotlar natijasida sholi yetishtirilayotgan sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlarning 0-30 sm.li qatlami tarkibidagi gumus miqdori bilan sholi hosildorligi o‘rtasida kuchli korrelyativ bog‘liqlik +0,79 ga teng ekanligi, sug‘oriladigan o‘tloqi-botqoq va botqoq o‘tloqi tuproqlarda esa tuproqlarning 0-50 sm li qatlami tarkibidagi gumus miqdori bilan sholi hosildorligi o‘rtasida kuchli korrelyativ bog‘liqlik +0,87 ga teng ekanligi aniqlangan. Bunday bog‘liqlik natijasida sholi ekinining organik “mahalliy” o‘g‘itlarga bo‘lgan talabi kuchli ekanligi va tuproq tarkibida gumus moddalarining ortib borishi sholi hosilining ham ortishiga olib keladi (3-rasm).

To‘rtinchi bobning “*Tuproqlarning harakatchan oziqa moddalarini miqdoriga ko‘ra bonitirovkalash*” deb nomlangan uchinchi paragrafida Andijon viloyatining bo‘z tuproqlar mintaqasidagi sholi yetishtirilayotgan sug‘oriladigan gidromorf tuproqlari sharoitida mazkur tuproqlar tarkibidagi oziqa elementlari miqdori va sifati tuproq unumdarligi va sifat bahosidagi ahamiyati bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan. Bunda, korrelyatsiya koefitsiyenti sug‘oriladigan o‘tloqi-botqoq va botqoq o‘tloqi tuproqlarda esa o‘rtacha korrelyatsiya, fosfor bilan 0,57 ni, kaliy bilan 0,63 koeffitsiyentni ko‘rsatishi hisobga olinib, tuproq tarkibidagi oziqa elementlarining ortib borishi tartibida Andijon viloyatining bo‘z tuproqlar mintaqasidagi sholi yetishtirilayotgan tuproqlarni bonitirovkalashda harakatchan fosfor va almashinuvchi kaliy miqdoriga ko‘ra pasaytiruvchi koeffitsiyentlaridan foydalanish taklif etildi.

